



2024-yil yanvar-noyabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
Tel.: (66) 235-65-80



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 757,9 mln AQSh** dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **144,6 mln AQSh** dollariga yoki **5,5 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln AQSh dollar)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **2 757,9** **+5,5 %**
(2023-y. **2 613,3**)



Saldo

2024-y. – **1 199,1**
(2023-y. – **1 262,7**)



Eksport

2024-y. **779,4** **+15,4 %**
(2023-y. **675,3**)



Tovarlar: **721,4**



Xizmatlar: **58,0**



Import

2024-y. **1 978,5** **+2,1 %**
(2023-y. **1 938,0**)



Tovarlar: **1 973,5**



Xizmatlar: **5,0**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **779,4** mln AQSh dollariga (**15,4 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **1 978,5** mln AQSh dollariga (**2,1 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **1 199,1** mln AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSh dollari va ulushi, foizda)



Rossiya TSA – 718,0 Eksport: 267,7 Import : 450,3  26,0 %	XXR TSA – 605,2 Eksport: 95,3 Import: 509,9  21,9 %	Qozog‘iston TSA – 220,6 Eksport: 77,3 Import: 143,3  8,0 %	Turkiya TSA – 200,4 Eksport: 46,6 Import: 153,8  7,3 %	Sloveniya TSA –102,8 Eksport: 0,0 Import: 102,8  3,7 %
Germaniya TSA – 70,6 Eksport: 6,1 Import: 64,5  2,6 %	Tojikiston TSA – 69,1 Eksport: 59,3 Import: 9,8  2,5 %	Hindiston TSA – 50,2 Eksport: 5,2 Import: 45,0  1,8 %	BAA TSA – 49,7 Eksport: 31,8 Import: 17,9  1,8 %	Latviya TSA – 44,6 Eksport: 1,5 Import: 43,1  1,6 %



SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln AQSh dollari)

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Rossiya Federatsiyasi	480,1	586,4	718,0
	<i>Eksport</i>	136,9	205,9	267,7
	<i>Import</i>	343,2	380,5	450,3
	Xitoy Xalq Respublikasi	330,3	656,9	605,2
	<i>Eksport</i>	37,7	59,9	95,3
	<i>Import</i>	292,6	597,0	509,9
	Qozog'iston	323,8	277,4	220,6
	<i>Eksport</i>	101,8	107,7	77,3
	<i>Import</i>	222,0	169,7	143,3
	Turkiya	323,8	185,2	200,4
	<i>Eksport</i>	101,8	37,5	46,6
	<i>Import</i>	222,0	147,7	153,8
	Sloveniya	46,4	41,5	102,8
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	46,4	41,5	102,8
	Germaniya	55,3	42,8	70,6
	<i>Eksport</i>	3,3	4,1	6,1
	<i>Import</i>	52,0	38,7	64,5
	Tojikiston	71,9	67,2	69,1
	<i>Eksport</i>	60,7	57,1	59,3
	<i>Import</i>	11,2	10,1	9,8
	Hindiston	44,4	40,3	50,2
	<i>Eksport</i>	0,6	3,7	5,2
	<i>Import</i>	43,8	36,6	45,0
	BAA	5,5	74,8	49,7
	<i>Eksport</i>	2,6	20,5	31,8
	<i>Import</i>	2,9	54,3	17,9
	Latviya	28,2	26,0	44,6
	<i>Eksport</i>	1,5	1,4	1,5
	<i>Import</i>	26,7	24,6	43,1




Davomi

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Polsha	36,5	43,2	43,7
	<i>Eksport</i>	7,2	1,6	2,2
	<i>Import</i>	29,3	41,6	41,5
	Yaponiya	65,4	51,0	43,0
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
	<i>Import</i>	65,3	50,9	42,9
	Eron	40,3	38,6	36,4
	<i>Eksport</i>	6,2	8,3	10,1
	<i>Import</i>	34,1	30,3	26,3
	Gruziya	24,3	24,9	34,0
	<i>Eksport</i>	7,5	6,7	8,6
	<i>Import</i>	16,8	18,2	25,4
	Ozarbayjon	18,0	63,7	33,5
	<i>Eksport</i>	16,7	16,4	30,5
	<i>Import</i>	1,3	47,3	3,0
	Afg'oniston	28,7	17,5	32,6
	<i>Eksport</i>	26,6	15,4	30,6
	<i>Import</i>	2,1	2,1	2,0
	Litva	37,2	32,3	32,6
	<i>Eksport</i>	6,5	3,5	1,4
	<i>Import</i>	30,7	28,8	31,2
	Qirg'iz Respublikasi	38,3	23,3	31,7
	<i>Eksport</i>	34,3	18,7	27,3
	<i>Import</i>	4,0	4,6	4,4
	Italiya	14,4	19,4	22,1
	<i>Eksport</i>	5,5	3,8	1,8
	<i>Import</i>	8,9	15,6	20,3
	Ukraina	32,0	15,0	20,2
	<i>Eksport</i>	3,4	5,2	6,5
	<i>Import</i>	28,6	9,8	13,7



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSh doll. ¹⁾)



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (55,0 % yoki 1 514,9 mln AQSh dollar), eng quyi ulush esa Payariq tumani (0,6 % yoki 15,9 mln AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKA (yanvar-noyabr, mln AQSh dollari)



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **41,2** % ulushi MDH davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davrida **40,8** % ni tashkil etgan.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan **4,8** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **58,8** % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra, **1 136,3** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **491,3** mln AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **645,0** mln AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSh dollari)

Rossiya

TSA – 718,0
Eksport – 267,7
Import – 450,3



Qozog'iston

TSA – 220,6
Eksport – 77,3
Import – 143,3



Tojikiston

TSA – 69,1
Eksport – 59,3
Import – 9,8



Ozərbayjon

TSA – 33,5
Eksport – 30,5
Import – 3,0



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 31,7
Eksport – 27,3
Import – 4,4



Ukraina

TSA – 20,2
Eksport – 6,5
Import – 13,7



Belarus Respublikasi

TSA – 19,8
Eksport – 10,8
Import – 9,0



Turkmaniston

TSA – 17,6
Eksport – 8,9
Import – 8,7



Moldova

TSA – 3,1
Eksport – 2,0
Import – 1,1



Armaniston


TSA – 2,7
Eksport – 1,1
Import – 1,6



Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (63,2 %), Qozog'iston (19,4 %) hamda Tojikiston (6,1 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSh dollari, ulushi foizda)



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **992,8** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **384,2** mln AQSh dollari, import hajmi esa **608,5** mln AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YeOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

export

SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI

EXPORT



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan **779,4** mln AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan **115,4 %** ni tashkil etgan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST¹ BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr, ulushi foizda)



 O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	675,3	779,4	118,4	115,4	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	226,1	296,7	111,9	131,2	33,5	38,1
Ichimliklar va tamaki	3,8	1,4	59,6	36,6	0,6	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,0	19,9	67,8	124,0	2,4	2,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	15,1	22,0	2,9 m.	146,5	2,2	2,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7,6	14,1	61,9	184,6	1,1	1,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,3	8,1	26,9	151,3	0,8	1,0
Sanoat tovarlari	167,5	220,8	87,4	131,8	24,8	28,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	145,5	104,2	3,4 m.	71,6	21,5	13,4
Turli xil tayyor buyumlar	49,4	34,2	109,8	69,4	7,3	4,4
Xizmatlar	39,0	58,0	183,0	148,7	5,8	7,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **92,6 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**38,1 %**), sanoat tovarlari (**28,3 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalari (**13,4 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	296,7	131,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Sabzavotlar va mevalar	222,0	117,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	20,2	86,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	15,5	2,6 m.
Ichimliklar va tamaki	1,4	36,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Ichimliklar	1,4	35,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	19,9	124,0
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	15,4	147,5
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,6	90,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	22,1	146,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	22,1	146,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	14,1	184,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	14,1	184,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	8,1	151,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4,5	4,4 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,1	66,3


XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	220,8	131,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Cho'yan va po'lat	91,4	179,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	68,5	93,0
Rangli metal	36,4	134,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,5	2,3 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	104,2	71,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Avtomobillar	92,2	101,5
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	7,0	120,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar lar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	3,7	131,6
Turli xil tayyor buyumlar	34,3	69,4
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	27,6	65,2
Poyafzal	4,1	83,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1,7	164,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,3	64,9
Xizmatlar	58,0	148,7
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli xizmatlar		
Turizm xizmatlari	24,9	156,6
Transport xizmatlari	20,2	138,5

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga **491,3** mln AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **63,0** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln AQSh dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **34,3** %) va XXR (**12,2** %) davlatlari yetakchilik qildi. Ulushi yuqori bo'lgan yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **78,0** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-noyabr, %)






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI, (yanvar-noyabr)

Davlatlar	mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya Federatsiyasi	205,9	267,7	150,5	130,0	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	59,9	95,3	158,9	159,2	3	2
Qozog'iston	107,7	77,3	105,8	71,7	2	3
Tojikiston	57,1	59,3	94,1	103,8	4	4
Turkiya	37,5	46,6	60,8	124,2	6	5
BAA	20,5	31,8	7,8 m.	155,2	7	6
Afg'oniston	15,4	30,6	57,8	199,0	10	7
Ozarbajjon	16,4	30,5	97,8	186,3	9	8
Qirg'iz Respublikasi	18,7	27,3	54,6	145,9	8	9
Belarus Respublikasi	9,5	10,8	72,8	113,8	12	10
Eron	8,3	10,1	134,6	121,4	13	11
Turkmaniston	4,3	8,9	93,2	2,1 m.	17	12
Gruziya	6,7	8,6	90,4	126,9	14	13
AQSH	4,5	7,7	123,2	172,6	16	14
Ukraina	5,2	6,5	153,7	123,1	15	15
Germaniya	4,1	6,1	124,9	148,6	18	16
Hindiston	3,7	5,2	6,6 m.	139,0	20	17
Iroq	2,9	3,3	167,2	112,6	22	18
Braziliya	1,7	2,5	12,1 m.	149,2	27	19
Polsha	1,6	2,2	22,5	135,9	29	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSh doll. ¹)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **38,8 %** ulush bilan **302,2** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani **0,2 %** ulush bilan **1,1** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida **186,7** mln AQSh dollarlik **178,3** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan **31,6** mln AQSh dollariga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**39,2** %), XXR (**12,9** %), Turkiya (**11,0** %) hamda Ozarbayjon (**5,4** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-noyabr, qiymatga nisbatan o'sish sur'atlari)

Uzum yangi uzilgan 68,3 mln AQSh dollari 53,4 ming tonna 145,5 %	Meva va rezavorlar 65,9 mln AQSh dollari 45,1 ming tonna 109,3 %	Qalampir 3,1 mln AQSh dollari 1,2 ming tonna 2,0 m.	Sabzavotlar 45,6 mln AQSh dollari 73,4 ming tonna 107,5 %
Uzum quritilgan 39,5 mln AQSh dollari 25,5 ming tonna 123,5 %	Yeryong'oc 2,3 mln AQSh dollari 2,0 ming tonna 85,6 %	Qovun va tarvuz 1,5 mln AQSh dollari 3,2 ming tonna 122,1 %	



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming tonna	mln AQSh dollari	Ulushi, % da
 Rossiya Federatsiyasi	69,0	73,2	39,2
 Xitoy Xalq Respublikasi	21,3	24,1	12,9
 Turkiya	12,4	20,6	11,0
 Ozarbayjon	5,3	10,2	5,4
 Belarus Respublikasi	7,9	8,1	4,3
 Gruziya	8,6	7,8	4,2
 Eron	4,9	5,7	3,1
 Ukraina	5,6	5,4	2,9
 Qozog'iston	11,1	3,4	1,8
 Iroq	9,8	3,1	1,7
 BAA	5,4	3,0	1,6
 Afg'oniston	1,7	2,7	1,4
 Germaniya	0,8	2,6	1,4
 Braziliya	2,3	2,5	1,3
 Turkmaniston	2,2	2,1	1,1
 Boshqa davlatlar	10,0	12,2	6,7

2024-yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **39,2** %), bu XXR eksport hajmidan **26,3** % ga ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha **61 843,7** ming AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **7,9** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati **71,3** % ni tashkil qildi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**43,6** %), Gilam mahsulotlari (**20,3** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **96** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **26** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)



		2023-yil	2024-yil
	Jami	86 788,5	61 843,7
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari	42 051,3	26 987,7
	Gilamlar	13 621,4	12 574,5
	Ipak va ipak mahsulotlari	15 848,6	9 503,4
	Naqshli mato	5 781,5	3 510,3
	Paxtadan gazlamalar	2 422,1	957,6
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	7 063,6	8 310,2




SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **1 978,5** mln AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan **102,1** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (**29,4** %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**25,8** %) hamda sanoat tovarlari (**26,3** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr, ulushi foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **39,6** mln AQSh dollariga ko'paydi va **1 973,5** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **5,0** mln AQSh dollariga yetdi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr)

XSST tarkibi	mln AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Jami import	1 938,0	1 978,5	124,1	102,1	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	154,5	183,1	98,5	118,6	8,0	9,3
Ichimliklar va tamaki	1,0	0,9	10,0 m.	90,2	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	52,2	58,3	71,2	111,6	2,7	2,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	39,8	45,1	119,3	113,3	2,0	2,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	33,1	33,8	130,0	101,9	1,7	1,7
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	458,8	510,2	114,4	111,2	23,7	25,8
Sanoat tovarlari	441,6	520,6	105,6	117,9	22,8	26,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	706,2	580,9	171,1	82,3	36,4	29,3
Turli xil tayyor buyumlar	46,9	40,6	124,2	86,6	2,4	2,0
Xizmatlar	3,9	5,0	163,6	128,5	0,2	0,3



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	183,1	118,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Hayvonlar uchun ozuqalar	65,5	139,3
Meva va sabzavotlar	44,4	154,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	28,0	50,4
Go'sht va go'sht mahsulotlari	21,8	35,2 m.
Ichimliklar va tamaki	0,9	90,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Ichimliklar	0,9	88,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	58,3	111,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	15,5	92,1
Probka va yog'och-taxtalar	14,0	96,3
Qog'oz massasi va makulatura	9,2	150,2
To'qimachilik tolalari	4,4	2,3 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	45,1	113,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	33,2	94,9
Ko'mir, koks va briketlar	3,9	86,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	33,8	101,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	32,8	101,9
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	1,0	104,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	510,3	111,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	338,9	120,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	78,1	103,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	32,7	116,5

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	520,6	117,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Cho'yan va po'lat	321,5	135,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	74,2	100,3
Metalldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	27,0	94,2
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	26,4	72,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	580,2	82,1
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	191,5	127,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'jallangan mashinalar	132,1	73,7
Boshqa transport uskunolari	79,7	47,9
Turli xil tayyor buyumlar	40,6	86,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	11,9	64,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	16,0	106,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	6,8	97,6
Poyabzal	2,1	87,9
Xizmatlar	5,0	128,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli xizmatlar		
Transport xizmati	4,4	117,4



2024-yil yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlari import ulushi **32,6 %** ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davrida **32,9 %** ni tashkil etgan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln AQSh dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari



2024-yil yanvar-noyabr oylarida Samarqand viloyati **95** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Sloveniya, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, va Polsha) jami importning **74,4 %** ulushini tashkil etdi.




VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, (2024-yil yanvar-noyabr,) foizda





SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024-yil yanvar-noyabr)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **61,3 %** ulush bilan **1 1212,7** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Payariq tumani **0,2 %** ulush bilan **4,8** mln AQSh dollarini tashkil etdi.



SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr)


Davlatlar	mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy Xalq Respublikasi	597,0	509,9	204,0	85,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	380,5	450,3	110,8	118,3	2	2
Turkiya	147,7	153,7	142,8	104,1	4	3
Qozog'iston	169,6	143,3	76,4	84,5	3	4
Sloveniya	41,5	102,8	89,4	247,8	9	5
Germaniya	38,7	64,5	74,4	166,6	10	6
Hindiston	36,6	45,0	83,4	123,0	11	7
Latviya	24,6	43,1	92,4	175,1	14	8
Yaponiya	50,8	42,8	77,8	84,2	6	9
Polsha	41,6	41,5	141,6	99,9	8	10
Litva	28,8	31,2	93,7	108,3	13	11
Eron Islom Respublikasi	30,3	26,3	88,7	86,7	12	12
Gruziya	18,2	25,4	108,2	139,8	16	13
Italiya	15,7	20,2	176,5	129,1	18	14
Bangladesh	15,7	19,9	112,4	126,3	17	15
BAA	54,3	17,8	1 908,7	32,9	5	16
Shveytsariya	8,3	16,4	65,2	197,7	26	17
Niderlandiya	18,3	14,7	125,5	80,3	15	18
Tailand	6,3	14,2	82,3	224,6	31	19
Ukraina	9,8	13,8	34,2	140,9	23	20



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi **520,6** mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **117,9** % ni tashkil qildi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **26,3** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024-yil yanvar-noyabr, ulushi foizda)

231,2 mln AQSh doll.
ulushi – **44,4** %



**Rossiya
Federatsiyasi**

134,8 mln AQSh doll
ulushi – **25,9** %



XXR

53,6 mln AQSh doll.
ulushi – **10,3** %



Qozog'iston

43,1 mln AQSh doll.
ulushi – **8,3** %



Turkiya

18,2 mln AQSh doll.
ulushi – **3,5** %



Bangladesh



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan va po'lat (**321,5** mln AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**74,2** mln AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tasniflanmagan (**27,0** mln AQSh dollari), rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**26,4** mln AQSh dollari), va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (66) 235-65-80